ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусайнов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI..... 1225

G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: gaybullayevsarvar674@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon iqtisodiyotida chakana savdo tarmog'ining o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda iste'mol bozoridagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda chakana savdo sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida chakana savdo tarmog'ining iqtisodiy mazmuni, xizmat ko'rsatish xususiyatlari hamda rivojlanish omillari mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari asosida umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari hududlar kesimida chakana savdo rivojlanishini ekonometrik usullar asosida baholash va prognozlash zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: chakana savdo, global bozor, iste'mol bozori, raqamlashtirish, iqtisodiy islohotlar, ekonometrik tahlil.

Abstract. This article examines the role of retail trade in the global economy, analyzing its development trends and importance in the consumer market. Particular attention is given to reforms in the retail sector of Uzbekistan and their impact on domestic market development. Based on a review of scientific literature, the economic essence of retail trade, service characteristics, and development factors are systematized from both domestic and foreign scholars' perspectives. The findings highlight the need to apply econometric methods for assessing and forecasting retail trade development at the regional level.

Keywords: retail trade, global market, consumer market, digitalization, economic reforms, econometric analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль розничной торговли в мировой экономике, а также анализируются основные тенденции её развития и значение в потребительском рынке. Особое внимание уделено реформам в сфере торговли в Республике Узбекистан, а также их влиянию на развитие внутреннего рынка. На основе анализа научной литературы обобщены теоретические подходы к определению экономической сущности розничной торговли, особенностей оказания услуг и факторов её развития. Результаты исследования обосновывают необходимость применения эконометрических методов для оценки и прогнозирования развития розничной торговли на региональном уровне.

Ключевые слова: розничная торговля, глобальный рынок, потребительский рынок, цифровизация, экономические реформы, эконометрический анализ.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida chakana savdo tarmog'i iste'mol bozorining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, global chakana savdo bozori hajmi 2025-yilda taxminan 30 trillion AQSh dollariga yaqinlashgan bo'lib, kelgusi yillarda raqamli savdo, urbanizatsiya va aholi daromadlarining o'sishi hisobiga yanada kengayishi prognoz qilinmoqda.¹ undan tashqari, xalqaro tahlillarga ko'ra, dunyoning yirik chakana savdo kompaniyalari faoliyati global savdo aylanmasining muhim qismini shakllantirib, iste'molchilar talabining o'zgarishi, raqamlashtirish jarayonlari hamda logistika tizimlarining takomillashuvi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda.

Shu jihatdan, chakana savdo tarmog'ining iqtisodiy mazmuni, xizmat ko'rsatish jarayonlari hamda uning bozor infratuzilmasidagi o'rni masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar chakana savdo faoliyatining nazariy asoslarini, xizmat ko'rsatish tizimining xususiyatlarini hamda savdo tarmoqlarining rivojlanish omillarini aniqlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "...Savdo va xizmatlar sohasini rivojlantirish, zamonaviy chakana savdo infratuzilmasini kengaytirish orqali aholi bandligini ta'minlash va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish muhim vazifalardan biridir", — deya ta'kidlagan². Bu mazkur masalaning dolzarbligi va muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda chakana savdo tarmog'i hajmi barqaror o'sib bormoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida respublikamizda chakana savdo tovar aylanmasi 316,3 trln so'mni tashkil etgan. Bu raqam 2024-yilning mos davriga nisbatan qariyb 11 foizga oshganini ko'rsatadi. Ichki bozor hajmining kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Birgina 2024-yil boshida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisobiga chakana savdo sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 90 mingdan ortiqni tashkil etgan³. Mamlakatimizda chakana savdo sohasini yanada rivojlantirish, savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 2-iyunidagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosi O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda tashqi savdo faoliyatini yanada liberallashtirishga olib keladi. Ushbu jarayon, o'z navbatida, mamlakatda chakana savdo tarmog'ining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, savdo bozorlarida raqobat muhitining kuchayishi, mahsulot assortimenti va sifatining oshishi, zamonaviy savdo texnologiyalarining joriy etilishi hamda savdo infratuzilmasining takomillashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar chakana savdo tarmog'ini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hududlar kesimida chakana savdo tarmog'ining rivojlanish jarayonlarini zamonaviy ekonometrik usullar asosida chuqur tahlil qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, mazkur jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy va tashkiliy omillarning miqdoriy bahosi aniq belgilab berilmaganligi chakana savdo tarmog'ining rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda prognozlash imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklab kelmoqda. Bu holat hududlar kesimida chakana savdo tarmog'i rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari o'rganish, uni ekonometrik modellashtirish asosida baholash hamda kelajakdagi istiqbollarini prognozlashni dolzarb ilmiy masalalar qatoriga olib chiqmoqda.

Iqtisodiy ilmiy adabiyotlarda savdo va xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda ularni ekonometrik yondashuvlar asosida baholash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda savdo hajmi, iste'mol bozori rivoji, logistika tizimi va savdo infratuzilmasining shakllanishi kabi omillar iqtisodiy-statistik metodlar yordamida tahlil qilinib, tarmoq rivojlanishining asosiy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan K.Sh. Ahmedovning ilmiy tadqiqotlarida chakana savdo tarmog'ining hududiy rivojlanish xususiyatlari alohida e'tirof etilgan. Olimning fikricha, chakana savdo aholining iste'mol talabini qondirishga xizmat qiluvchi ayirboshlash jarayonining muhim shakli bo'lib, u hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Chakana savdo tizimi doirasida turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi

1 Global chakana savdo bozori va raqamli transformatsiya tendensiyalari. Elektron manba: <https://www.kenresearch.com/articles/global-retail-market-digital-transformation-trends>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: Kirish tartibi - <https://president.uz/oz/lists/view/6930>

3 O'zbekistonning rasmiy va ishonchli yangiliklar portali veb-sayti:

Kirish tartibi - <https://vaqt.uz/uz/news/ozbekistonda-chakana-va-ulgurji-savdo-hajmi-oshdi-12029>



hamda bu jarayonlar asosan chakana tovar aylanmasi orqali namoyon bo'ladi. Chakana savdo faoliyati o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlariga ega tarmoqdir. Uning o'sishi va samaradorligiga bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi.⁴

D.H. Xolmamatov o'z ilmiy tadqiqotlarida chakana savdoni tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri yakuniy iste'molchiga yetkazib berish va sotish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, chakana savdo ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in bo'lib, tovarlarning bozor orqali harakatlanish jarayonining yakuniy bosqichini tashkil etadi. Tadqiqotlarda chakana savdoning iqtisodiy mazmuni, bozor infratuzilmasidagi o'zni, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qo'shadigan hissasi keng tahlil qilingan. Muallifning fikriga ko'ra, chakana savdo faoliyati doirasida bir qator muhim tijorat vazifalari amalga oshiriladi. Jumladan, bozor konyunkturasini o'rganish, talab va taklif nisbatini aniqlash, ishlab chiqaruvchi yoki vositachi korxonalar bilan tovar xaridi bo'yicha hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni yetkazib berishni tashkil etish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, iste'molchilarning talab va ehtiyojlariga mos tovar assortimentini shakllantirish, savdo jarayonida turli xizmatlarni ko'rsatish, marketing faoliyatini amalga oshirish hamda reklama va axborot ishlarini tashkil etish chakana savdoning asosiy funksiyalari sifatida e'tirof etiladi⁵.

Iqtisodchi olim B.A. Abdukarimov o'z ishida savdoni xizmat ko'rsatish faoliyatining alohida turi sifatida talqin qiladi. Olimning fikriga ko'ra, savdo tizimi bir vaqtning o'zida bir nechta iqtisodiy subyektlarga xizmat ko'rsatadi. Bir tomondan, u ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini bozorga chiqarish va realizatsiya qilish imkonini yaratadi. Ikkinchi tomondan, savdo tarmog'i iste'molchilarning turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, savdo sohasi davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, ichki bozor barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy jarayonlarning muvozanatli rivojlanishiga ko'maklashuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Savdo tizimi boshqa iqtisodiyot tarmoqlari bilan ham uzviy aloqada faoliyat yuritadi. Xususan, ishlab chiqarish, transport, logistika, moliya va xizmat ko'rsatish sohalari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash orqali ularning rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, chakana savdo tarmog'i ushbu jarayonlarning yakuniy bosqichi sifatida tovarlarning iste'molchiga yetib borishini ta'minlaydi hamda ichki bozor faoliyatining samarali ishlashida muhim rol o'ynaydi⁶.

A. Soliyev o'z tadqiqotlarida savdo xizmatlari sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, chakana savdo tarmog'ida xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash xaridorlarga tovar tanlash jarayonida har tomonlama yordam ko'rsatishni talab etadi. Xaridorlarga mahsulotlar haqida batafsil maslahat berish, tovarlarning amaliy imkoniyatlarini namoyish etish, shuningdek, reklama va axborotning turli shakllaridan samarali foydalanish savdo xizmatlari sifatini oshirishda muhim hisoblanadi. Olimning fikriga ko'ra, ushbu chora-tadbirlar chakana savdo jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga iste'molchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirishga olib keladi⁷.

Xorijlik olimlardan Olga Vladimirovna Chkalova o'zining "Формирование и развитие розничной торговой сети в мегаполисах" nomli dissertatsiyasida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganadi. Tadqiqotda bozor sharoitida savdo tarmog'ini shakllantirish va rivojlantirish modeli hamda metodikasi ishlab chiqilgan. Savdo korxonalarining jozibadorligi va tashrif buyuruvchilar sonini baholash usullari taklif etilib, chakana savdo tarmog'ini hududiy joylashtirish va rivojlantirishni tartibga solish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan. Muallifning ta'kidlashicha, chakana savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda eng muhim bosqichlardan biri mahalliy, ya'ni shahar va munitsipal darajadagi boshqaruv hisoblanadi. Chunki aynan ushbu darajadagi boshqaruv organlari savdo tarmog'ini tashkil etish, muvofiqlashtirish va tartibga solish jarayonlarining bevosita ijrochilari sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur organlar savdo korxonalariga boshqa boshqaruv darajalariga nisbatan yaqin bo'lib, ularning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Shu sababli ular savdo korxonalarining rivojlanish xususiyatlari, hajmi va faoliyat yo'nalishlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi⁸.

Yuricheva Yelena Yuryevnaning "Управление экономической эффективностью деятельности сельскохозяйственных предприятий" nomli asarida korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Muallifning fikricha, chakana savdo tarmog'i korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ishlab chiqarish

4 K.Sh.Ahmedov // chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari // Dissertatsiya i.f.f.d., (PhD). Urganch 2024 y., - 97 bet.

5 D.H.Xolmamatov // Chakana savdoning mohiyati va ahamiyati // journal of marketing, business and management / sjif factor: 5.57. <https://cyberleninka.ru/article/n/chakana-savdoning-mohiyati-va-ahamiyati/viewer>

6 B.A.Abdukarimov // Ichki savdo iqtisodiyoti // Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 41-42 betlar.

7 A.Soliyev, S.Buzrukxonov // Marketing. Bozorshunoslik. // Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010. – 293-295 betlar.

8 O.V.Chkalova // Формирование и развитие розничной торговой сети в мегаполисах // Кандидатская диссертация. 08.00.05 - «Экономика и управление народным хозяйством», Нижний Новгород 2003 г.



salohiyatidan oqilona foydalanish hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarur. Olim iqtisodiy samaradorlikni oshirishda boshqaruv tizimini takomillashtirish, axborot-uslubiy ta'minotni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi⁹.

Yuliya Sergeyevna Valeevaning ishida chakana savdo tarmoqlari xizmatlarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslariga alohida e'tibor qaratilgan. Olimaning fikricha, chakana savdo tarmoqlari xizmatlari iqtisodiy mazmuni, xizmat ko'rsatish jarayoni va natijasi kabi uch muhim tarkibiy qismning uyg'unligi asosida shakllanadi. Muallif xizmatlarni mijozga yo'naltirilganlik, qiymatga asoslangan yondashuv hamda jarayonli yondashuv nuqtayi nazardan tahlil qilib, chakana savdo xizmatlarining iste'molchi uchun yaratiladigan umumiy qiymatini hamda savdo tarmoqlarida yuzaga keladigan tarmoq samaradorligini asoslab beradi. Shuningdek, tadqiqotda chakana savdo tarmoqlari xizmatlarini rivojlantirishning "ehtiyojlar - qiymat - investitsiyalar" konseptual modeli taklif etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, savdo xizmatlarini samarali rivojlantirishda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, savdo tarmoqlarining samarali tashkiliy tuzilmasini shakllantirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish muhim sanaladi¹⁰.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda chakana savdo tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va uni barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Metodologiyaning nazariy bazasini iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va bozor infratuzilmasi nazariyalari tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalaniladi:

tizimli tahlil usuli – chakana savdo tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning tarkibiy elementlari va funksional bog'liqliklarini aniqlash;

mantiqiy umumlashtirish usuli – mavjud ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlarni umumlashtirish;

taqqoslash usuli – turli mamlakatlar va hududlarda chakana savdorivojlanish tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

ko'rsatkichlar tizimi yondashuvi – savdo aylanmasi, bandlik, xizmatlar sifati va infratuzilma darajasi kabi mezonlar asosida baholash.

Mazkur metodologiya chakana savdo tarmog'ining iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash va uning barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari chakana savdo tarmog'ining iqtisodiy mazmuni, uning bozor infratuzilmasidagi o'rni, xizmat ko'rsatish sifati hamda rivojlanish omillarini turli jihatlar orqali yoritib beradi. Ushbu tadqiqotlarda chakana savdo faoliyatining iqtisodiy mohiyati, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati, savdo xizmatlari sifatini oshirish hamda savdo tarmoqlarini samarali boshqarish masalalari alohida e'tiborga olingan. Mazkur ilmiy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish va tahlil qilish maqsadida olimlarning asosiy yondashuvlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Chakana savdo tarmog'i bo'yicha olimlarning ilmiy qarashlari tahlili¹¹

Tadqiqotchi olimlar nomlari	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy ilmiy g'oya	Tadqiqot uchun ahamiyati
K.Sh.Ahmedov	Chakana savdo tarmog'ining hududiy rivojlanishi	Chakana savdo aholining iste'mol ehtiyojlarini qondiruvchi ayirboshlash jarayoni bo'lib, uning rivojlanishi hududiy iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq	Chakana savdo tarmog'ining hududlar kesimidagi rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi
D.H.Xolmamatov	Chakana savdoning iqtisodiy mazmuni va funksiyalari	Chakana savdo ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi muhim bo'g'in bo'lib, tovarlar aylanishining yakuniy bosqichini tashkil etadi	Chakana savdo tizimining iqtisodiyotdagi o'rni va asosiy funksiyalarini aniqlashga yordam beradi

9 E.Ю.Юричева // Управление экономической эффективностью деятельности сельскохозяйственных предприятий // Кандидатская диссертация. 08.00.05 - «Экономика и управление народным хозяйством», Йошкар-Ола 2007 г.

10 Ю.С. Валеева // Развитие услуг розничных торговых сетей: теория, методология, практика // Докторская диссертация. «Экономика. Краснодар 2022 г.

11 Jadval ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi




B.Abdukarimov	Savdo xizmatining iqtisodiy mohiyati	Savdo tizimi ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, davlat va boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga xizmat ko'rsatadigan muhim iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi	Chakana savdoning iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi tizim sifatidagi rolini yoritadi
A.Soliyev	Savdo xizmatlari sifatini oshirish	Xaridorlarga maslahat berish, mahsulotlarni namoyish qilish, reklama va axborot xizmatlarini rivojlantirish savdo xizmatlari sifatini oshiradi	Chakana savdo tizimida marketing va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mexanizmlarini tushuntiradi
O.V.Chkalova	Chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish	Savdo tarmog'ini rivojlantirishda mahalliy boshqaruv organlari muhim rol o'ynaydi va ular savdo korxonalarining faoliyatini bevosita tartibga soladi	Chakana savdo tarmog'ini hududiy boshqarish va joylashtirish jarayonlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi
Yu.S.Valeeva	Chakana savdo tarmoqlari xizmatlarini rivojlantirish	Chakana savdo xizmatlari iqtisodiy mazmun, jarayon va natijaning uyg'unligi asosida shakllanadi hamda mijozga yo'naltirilgan yondashuv muhim hisoblanadi	Chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish va ularning iste'mol qiymatini oshirish bo'yicha ilmiy asos yaratadi
E.Yu.Yuricheva	Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini boshqarish	Samaradorlikni oshirish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur	Chakana savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va boshqarish jarayonida qo'llanilishi mumkin

Jadvalda keltirilgan olimlarning ilmiy qarashlari hamda ilmiy izlanishlarimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, chakana savdo tarmog'i nafaqat tovarlarni yakuniy iste'molchiga yetkazib beruvchi tizim, balki ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Tadqiqotlarda savdo tarmog'ining hududiy rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sifati, savdo infratuzilmasi hamda savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar turli jihatlar orqali yoritilgan. Ayniqsa, savdo xizmatlarini rivojlantirishda iste'molchilarga yo'naltirilgan yondashuv, marketing faoliyatini takomillashtirish va savdo jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim omil sifatida qayd etiladi.

Chakana savdo tarmog'ining samarali rivojlanishi savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika tizimini takomillashtirish hamda raqamli savdo texnologiyalarini joriy etish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu omillar savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ichki bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'rganilgan ilmiy manbalar va olimlarning nazariy qarashlari chakana savdo faoliyati ko'p sonli iqtisodiy resurslar hamda boshqaruv omillari o'zaro ta'siri asosida shakllanishini ko'rsatadi. Xususan, savdo faoliyatining samaradorligi tovar resurslari, moliyaviy imkoniyatlar, infratuzilma holati hamda mehnat salohiyatidan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu omillar chakana savdo realizatsiyasi hajmining shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, natijada savdo faoliyatidan olinadigan yalpi daromad, muomala xarajatlari hamda sof moliyaviy natijalarni belgilab beradi.

Chakana savdo tarmog'ining samarali faoliyat yuritishi nafaqat iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, balki savdo obyektlarini hududiy jihatdan to'g'ri joylashtirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Savdo infratuzilmasining hududiy tashkil etilishi aholining iste'mol talabini qondirish darajasi, savdo xizmatlaridan foydalanish qulayligi hamda savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Savdo obyektlarini joylashtirish jarayoniga shaharsozlik sharoitlari, transport infratuzilmasi, aholining demografik xususiyatlari, hududning iqtisodiy salohiyati, raqobat muhiti hamda innovatsion texnologiyalarning rivojlanish darajasi kabi omillar ta'sir etadi. Mazkur omillarning o'zaro ta'sirini tizimli ravishda aks ettirish maqsadida chakana savdo obyektlarini joylashtirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tizimi ishlab chiqildi (1-rasm).

1-rasm. Chakana savdo obyektlarini joylashtirishni belgilovchi asosiy omillar tizimi¹²

12 Ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi



1-rasmda chakana savdo obyektlarini hududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimi tasvirlangan. Shaharsozlik omili savdo obyektlarini tashkil etishda hududning rejalashtirilishi, aholi zichligi hamda funksional zonalarning joylashuvini inobatga olishni talab etadi. Transport-logistika omili esa savdo obyektlarining transport tarmoqlari bilan bog'liqligi orqali xaridorlar oqimi shakllanishi va tovarlarni yetkazib berish jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-demografik omillar hudud aholisi soni, daromad darajasi hamda iste'mol talabining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy omillar savdo infratuzilmasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va biznes muhitining rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, hududdagi raqobat muhiti hamda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi savdo xizmatlari sifatini oshirish va savdo obyektlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, chakana savdo tarmog'ining samarali rivojlanishi savdo resurslaridan oqilona foydalanish, savdo infratuzilmasini takomillashtirish hamda savdo obyektlarini hududiy jihatdan maqsadga muvofiq joylashtirish bilan belgilanadi. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish savdo jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, savdo korxonalarining faoliyatini iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish, ekonometrik yondashuvlar orqali baholash va rivojlanish tendensiyalarini prognozlash chakana savdo tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Global chakana savdo bozori va raqamli transformatsiya tendensiyalari. Elektron manba: <https://www.kenresearch.com/articles/global-retail-market-digital-transformation-trends>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: Kirish tartibi - <https://president.uz/oz/lists/view/6930>
3. O'zbekistonning rasmiy va ishonchli yangiliklar portali veb-sayti: Kirish tartibi - <https://vaqt.uz/uz/news/ozbekistonda-chakana-va-ulgurji-savdo-hajmi-oshdi-12029>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>
5. K.Sh.Ahmedov // chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari // Dissertatsiya i.f.f.d., (PhD). Urganch 2024 y., - 97 bet.
6. D.H.Xolmamatov // Chakana savdoning mohiyati va ahamiyati // journal of marketing, business and management / sjif factor: 5.57. <https://cyberleninka.ru/article/n/chakana-savdoning-mohiyati-va-ahamiyati/viewer>
7. B.A.Abdukarimov // Ichki savdo iqtisodiyoti // Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 41-42 betlar.
8. A.Soliyev, S.Buzrukxonov // Marketing. Bozorshunoslik. // Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010. – 293-295 betlar
9. O.B.Чкалова // Формирование и развитие розничной торговой сети в мегаполисах // Кандидатская диссертация. 08.00.05 - «Экономика и управление народным хозяйством», Нижний Новгород 2003 г.
10. Е.Ю.Юричева // Управление экономической эффективностью деятельности сельскохозяйственных предприятий // Кандидатская диссертация. 08.00.05 - «Экономика и управление народным хозяйством», Йошкар-Ола 2007 г.
11. Ю.С. Валеева // Развитие услуг розничных торговых сетей: теория, методология, практика // Докторская диссертация. «Экономика. Краснодар 2022 г.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100